

ILOVA KONSTRUKSIYA TARKIBIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING ILOVALI ELEMENTLAR SIFATIDA QO‘LLANILISHI

*I.U.Mamasoliev,
SamDCHTI katta o‘qituvchisi, PhD*

Annotatsiya. Matnning mantiqiy mazmunini yetkazib berishda emotsional-ekspressiv va estetik xabarni tinglovchiga yetib borishini ta’minlash asosiy vazifalardan biridir. Matnda stilistik funksiyani amalga oshirishda lisoniy birliklarning emotsional, ekspressiv va baholash konnotatsiyalari katta rol o‘ynaydi. Bunda, ilova konstruksiyalar ham ulkan badiiy tasvir imkoniyatlariga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Bunda ular juda nozik ma’no va ta’sirchanlik xususiyatlarini tinglovchiga yetkazib berish qobiliyatini namoyon etadi. Mazkur maqola ilova konstruksiya tarkibida badiiy tasvir vositalarining ilovali elementlar sifatida qo‘llanilishi tasvirlangan bo‘lib, ilova konstruksiyalar gapga o‘ziga xos ta’sirchanlik – shiddat, keskinlik tusini berish imkoniyatini yuzaga keltirishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: stilistika, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy tasvir vositalari, ta’sirchanlik, shiddat, keskinlik, ma’no xususiyati.

Stilistika – til birliklarining kontekstdagi badiiy tasvir vositalari imkoniyatlari va uslubiy xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qiladigan fandır. Stilistik funksiya til birliklarini matnda badiiy tasvirlash imkoniyatlarini namoyon qilish bilan amalga oshiriladi. Bunda matnning mantiqiy mazmunini yetkazib berish bilan birga unda emotsional-ekspressiv va estetik xabarni tinglovchiga yetib borishini ta’minlash lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Stilistik funksiyani amalga oshirishda lisoniy birliklarning emotsional, ekspressiv va baholash konnotatsiyalari katta rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ilova konstruksiyalar ham ulkan badiiy tasvir imkoniyatlariga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bunda ular juda nozik ma'no va ta'sirchanlik xususiyatlarini tinglovchiga yetkazib berish qobiliyatini namoyon etadi. Jumladan, ilova konstruksiyalar gapga o'ziga xos ta'sirchanlik [ekspressivlik] – shiddat, keskinlik tusini berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

“Ilova hodisasi shunday bir tipologik lingvistik hodisaki, uni tahlil qilaversang, yangidan-yangi tomonlari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi, buning manbai birinchidan, tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bo'lsa, ikkinchidan esa turli funksional uslublarni o'zida mujassamlashtira olgan nemis yozuvchilarining badiiy asarlari – matnlardir” [3; 210-b.].

Shuni ta'kidlash kerakki, stilistik funksiya ilovali elementlarning funksiyalari orasida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan stilistik funksiyalar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, matnning xilma-xil kompozitsiyalarda ifodalanib kelishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilovali elementlarning ilova konstruksiya tarkibida bajarib keluvchi stilistik funksiyalarini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin:

1. Ba'zi so'zlarning takrorlanib kelishi ham ma'lum stilistik vazifani bajarib keladi:

“Nie zwar meinte sie ähnlich Schöne, in ihrem tiefen Dunkel so auf leuchtende Augen gesehen zu haben. Nie eine solche Stirn. Nie eine so klangvolle Stimme” (Hofe Günter. Roter Schnee. 241).

Aytish joizki, “ilova konstruksiyalar tarkibidagi takrorlanuvchi qism oddiy takrorlanmasdan, balki o'zining vazifasini ma'lum darajada o'zgartirib ifodalanadi va buning natijasida takrorlanib kelayotgan ilovali elementning ta'sirchanligi ortib boradi. Kitobxonning diqqat-e'tibori takror ifodalangan ilovali elementga qaratiladi. Ushbu ilovali element gap tarkibida oddiygina takrorlanmaydi, balki u tilning leksik-grammatik vositalari yordamida boyitiladi. Buning natijasida asosiy ifodaga nisbatan qo'llanilgan qo'shimcha ma'no aniqlashtiriladi, to'ldiriladi” [2; 107-b.].

2. Ilovali elementlarning yana bir o‘ziga xos bo‘lgan stilistik vazifasi – bu ma’lum bo‘laklar bilan ilovali elementlarning ma’no xususiyatlarini bir-biriga taqqoslash orqali paydo bo‘ladigan stilistik tasvirlash vazifasi, ya’ni o‘xshatish jarayoni yuzaga keladi.

Nachts sah man die mehrstöckigen Lichtgirlanden oben an der Bühne kilometerweit. Wie wenn sie den Turm herausgeputzt hätten für eine Feier (Küster Karl-Heinz. Das Gespenst von Black Rose Gastle. S.36).

Mazkur misolda ilovali elementlar asosiy ifodadagi ma’lum bo‘laklarning ma’no xususiyatlarini bir-biriga o‘xshatish yordamida ilova hodisasi yuzaga keladi. Xususan, *die mehrstöckigen Lichtgirlanden* jumlasining *wie wenn sie den Turm herausgeputzt hätten für eine Feier* ifodasi bilan ma’lum bo‘laklarga o‘xshashlik taraflari tasvirlangan.

3. Berilgan ifodaning ma’nosini to‘ldirish. Asosiy ifodaning ma’lum bir bo‘lagi tegishli sinonimlari bilan qo‘shimcha qilinib gapda takroran beriladi va gapdagi joylashish o‘rni berilgan bo‘lakdan keyin kelib, nuqta bilan asosiy gapdan ajratib turiladi:

“... Bloß wir dürfen nicht nach drüben. Es geht wieder mal nur gegen uns. Immer gegen die armen Leute!” (Krupkat Gunter. Als die Götter starben. S. 47)

4. Gapning ma’lum bo‘lagi gapning boshida maxsus urg‘u bilan ajratib ko‘rsatiladi va ifodaning davomi boshqa so‘z yoki so‘z birikmalari bilan oxiriga yetkaziladi.

“Wann sehen wir uns mal” fragte er... Anfang der Woche. Montag. Um neun mit dem Fahrrad (Bredel Willi. Die Söhne. S. 163).

Matn tarkibidagi biron-bir komponentni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida unga mantiqiy urg‘u berib yana bir marta takrorlaydi, maqsad kitobxonning diqqat-e’tiborini ana shu takrorlanib keluvchi komponentning mazmuniga yana bir-bor jalb etish. Chunki, kupincha ana shunday takrorlanib keluvchi leksik birliklar doirasida muxim xabarlar beriladi, biron-bir hodisa takrorlanadi, bu bilan uning ta’sirchanligi, badiiyligi ta’kidlanadi. Ana shunday funktsiyalar ilovali elementlar

tomonidan amalga oshiriladi [1; 98-b.].

5. Ilovali elementning konstruksiya oxirida yakka holda kelishi:

Es tut Ihnen überhaupt nicht leid. Im Gegegnenteil (Bruns Marianne. Die Lichtung. S. 148).

Yuqoridagi misolda ilovali element sifatida ifodalangan "Im Gegegnenteil" komponenti yordamida butun matnga va uning mazmuniga yakun yasalmoqda. Chunki ilovali element mazmun salmog'i jihatidan gapda muhim ahamiyat kasb etmoqda, garchi u tomonidan bildirilayotgan qo'shimcha ma'no qisqa ifodalangan bo'lsa ham.

6. Ba'zi hollarda ayrim komponentlarning ilova konstruksiya tarkibida o'z o'rnida kelmasligi yoki tushirib qoldirilishi ham uning stilistik vazifasini yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi:

"Für etwas anderes" stieß Berndt hervor in Englisch und Deutsch, für was ganz anderes. ... eine andere Zukunft. ... unsere Kinder... (Elgers Paul. Jungfrau Johanna. Erster Teil. S. 43).

Ushbu misolda biron-bir komponentning ilova konstruksiya tarkibidan tushirib qoldirilishi ilova konstruksiyaning boshqa komponentlari ma'nolari bilan muntazam to'ldirib borilishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilganda, tahlil qilingan misollar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning stilistik funksiyalari soddalik, sinonimlik, murakkablashish, ketma-ketlik kabi munosabatlarni ifodalabgina qolmasdan, asar qahramonlarining ruhiy holatini, his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini, shodlik va qayg'ulik kayfiyatlarini tasvirlashda muhim vosita hisoblanadi. Ilovali elementlar stilistik funksiyalarining xilma-xil, rang-barang tavsifga ega bo'lishi uning boshqa funksiyalarini aniqlashtirib, to'ldirib, reallashtirib kelishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov M.B. Nemis tilida ilova konstruksiyalar. Monografiya. SamDChTI nashri, 2020, 122-bet.

2. Крот О.Н., Рослякова Е.Ф. Присоединительные конструкции в современном немецком языке. Научные ведомости / Серия “Гуманитарные науки”. 2013. №20 (163). Выпуск 19. – С. 105-110.

3. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Дисс... докт. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 465 с.

4. Хайруллаев, Х. (2017). Яна нутқнинг минимал бирлиги ҳақида ёки гап ва жумла масаласи хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 25-29.

5. Хайруллаев, Х. (2018). Нутқ бирликларининг иерархик муносабати хусусида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(1 (66)), 43-49.

6. Хайруллаев, Х. (2009). К ВОПРОСУ ОБ ИЕРАРХИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ ПРЕДЛОЖЕНИЯ СО СЛОЖНОЙ СИНТАКСИЧЕСКОЙ КОНСТРУКЦИЕЙ. Вопросы гуманитарных наук, (1), 109-112.

7. Bredel Willi. Die Söhne. Aufbau - Verlag. – Berlin und Weimar, 1979. – 558 S.

8. Bruns Marianne. Die Lichtung. Mitteldeutscher Verlag. – Halle (Saale), 1972. – 460 S.

9. Elgers Paul. Jungfrau Johanna. Erster Teil. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1977. – 371 S.

10. Hofe Gunter. Roter Schnee. Verlag der Nation. – Berlin, 1976. – 512 S.

11. Krupkat Gunter. Als die Götter starben. Verlag das neue Berlin, 1967. – 287 S.

12. Küster Karl-Heinz. Das Gespenst von Black Rose Gastle. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1973. – 188 S.

